


# Qo‘qon DPI

# ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 5/2025

# Qo‘qon DPI.

# Ilmiy xabarlar

# Кокандский ГПИ.

# Научный вестник

**№5/2025**

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

**Bosh muharrir:** Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva
**Mas’ul muharrirlar:**
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev
Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova
**Mas’ul muharrir yordamchisi:** Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev
**Nashr uchun mas’ul:** M.Z.Muydinov

MUASSIS:
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.
Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

"**Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar**" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili:
150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www.kspi.uz
journal.kspi.uz
ISBN: 978-9943-7182-7-2
“CLASSIC” nashriyoti
2025

**TABIIY FANLAR**
И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ)
Sh.S.Nomozov,texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB)
А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB)
O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)

**FILOLOGIYA FANLAR**
Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR)
И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ)
В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ)
К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)

**IJTIMOIY FANLAR**
Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)
M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)

**PEDAGOGIKA FANLAR**
Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI**
*(2025-yil 5-son)*

**FILOLOGIYA**

**PHILOLOGY**

# GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK YO‘NALISHI TALABALARIDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MODELLARI

***Akhmedov Hasan Uzairovich***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi*
*katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada gid hamrohlik yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan modul asosidagi yondashuvlar yoritiladi. Muloqot ko‘nikmasi – bu har bir gid uchun zaruriy kasbiy vosita bo‘lib, u til bilimidan tashqari psixologik tayyorgarlik, madaniyatlararo farqlarni anglash, savol-javob madaniyati va emotsional intellekt kabi ko‘nikmalarni ham qamrab oladi. Maqolada modul asosidagi o‘qitishning nazariy asoslari, amaliy usullari, real dars vaziyatlaridagi qo‘llanilishi va o‘qituvchi uchun metodik tavsiyalar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nafaqat tilni o‘rganadilar, balki o‘z fikrlarini aniq, ravon va madaniyatli tarzda bayon qilish, suhbatdoshning psixologik holatini tushunish, turli vaziyatlarda tezkor reaksiya bildiradigan ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

**Kalit so‘zlar:** gid-hamrohlik, muloqot ko‘nikmasi, modul, interaktiv metod, kasbiy kompetensiya, zamonaviy ta’lim.

**Abstract.** This article discusses module-based approaches aimed at developing communication competence in preparing students studying for professional activities in the field of guide accompaniment. Communication skills are a necessary professional tool for every guide, which, in addition to language skills, also includes such skills as psychological preparation, understanding intercultural differences, question-and-answer culture, and emotional intelligence. The article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of module-based teaching, practical methods, their application in real classroom situations, and methodological recommendations for teachers. Through this approach, students not only learn the language, but also acquire the skills to express their thoughts clearly, fluently, and culturally, to understand the psychological state of the interlocutor, and to react quickly in various situations.

**Keywords:** guide accompaniment, communication skills, module, interactive method, professional competence, modern education.

**Аннотация.** В статье рассматриваются модульные подходы, направленные на развитие коммуникативной компетенции при подготовке студентов, обучающихся к профессиональной деятельности в сфере сопровождения гидов. Коммуникативные

навыки являются необходимым профессиональным инструментом каждого гида, который, помимо языковых навыков, включает в себя также такие навыки, как психологическая подготовка, понимание межкультурных различий, культура вопросов и ответов, эмоциональный интеллект. В статье дается глубокий анализ теоретических основ модульного обучения, практических методов, их применения в реальных аудиторных ситуациях, а также методические рекомендации для преподавателей. Благодаря такому подходу студенты не только изучают язык, но и приобретают навыки четкого, беглого и культурного выражения своих мыслей, понимания психологического состояния собеседника, быстрого реагирования в различных ситуациях.

**Ключевые слова:** сопровождение гидов, коммуникативные навыки, модуль, интерактивный метод, профессиональная компетентность, современное образование.

## KIRISH

Zamonaviy mehnat bozorining keskin raqobatli sharoitida kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar tobora ko‘proq talab etilmoqda Ayniqsa gid-hamroh va tarjimonlik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu ko‘nikmalar kasbiy muvaffaqiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi Chunki ular kundalik ish faoliyatida mahalliy va xorijiy mehmonlar bilan bevosita muloqotga kirishadi turli madaniyatlararo muhitda o‘z fikrini ravon va aniq ifoda eta olishi zarur bo‘ladi Oliy ta’lim muassasalarida bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun an’anaviy metodlar yetarli natija bermayotgani kuzatilmoqda Zero bunday yondashuvlar asosan nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan bo‘lib real hayotiy vaziyatlarni to‘laqonli qamrab olmaydi Shu nuqtayi nazardan modul asosidagi ta’lim yondashuvi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda Bu yondashuv talabaning individual ehtiyojlariga moslashadi muloqot jarayonini tabiiiy muhitga yaqinlashtiradi va interaktiv metodlar orqali o‘zlashtirish jarayonini soddalashtiradi Ushbu maqolada aynan modul asosidagi ta’lim orqali muloqot kompetensiyasini samarali shakllantirish tajribasi va natijalari tahlil qilinadi

## Metodlar

Tadqiqot jarayonida modul asosida dars berish tajribasi amaliyotga joriy qilindi. Ta’lim jarayoni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan bo‘lib har bir modul o‘z ichiga aniq bir mavzuni olgan va unga mos metodik vositalar tanlab olingan. Modullarda asosiy urg‘u talabalarni mustaqil fikrlash o‘z fikrini erkin bayon etish hamda madaniyatlararo va stressli sharoitlarda kommunikatsiya yurita olish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratildi. Modullar quyidagi mavzular asosida shakllantirildi Nutq etiketi va tanishtiruv muloqotlari. Madaniyatlararo aloqa etikasi. Ziddiyatli holatlarda muomala. Gidlik faoliyatida savol-javob madaniyati Emotsional barqarorlik va kasbiy nutq muvozanati.

Ta’lim jarayonida foydalanilgan metodlar orasida rolli o‘yinlar munozara va bahs-munozaralar keyslar bilan ishlash multimediaviy taqdimotlar va situatsion analizlar mavjud bo‘ldi. Baholashda esa reflektiv yondashuvdan foydalanilib har bir modul yakunida talabalar

o‘z faoliyatini baholashdi kamchilik va yutuqlarini tahlil qilishdi o‘zgarish kiritish takliflarini berdilar.

**Natijalar**

Tadqiqot davomida modul asosidagi yondashuvning sezilarli afzalliklari aniqlandi. Talabalarda nutq faolligi sezilarli darajada oshdi. Ular so‘zlashuv paytida tabiiy va erkin ifoda qilishni o‘rgandilar. Muomala vaqtida xushmuomalalik andozalaridan foydalanish madaniy farqlarga hurmat bilan yondashish va qiyin vaziyatlarda konstruktiv yechim topish ko‘nikmalari shakllandi. O‘z fikrini mantiqan asoslab berish auditoriya e’tiborini jalb qila olish va emotsional holatni boshqarish singari muhim jihatlar mustahkamlandi. Talabalar o‘z fikrlarini aniq ravon va auditoriyaga moslashtirib bayon eta olishga intiladigan bo‘lishdi Bu esa kelajakda ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

So‘rovnomalar va reflektiv yozuvlarda talabalarning aksariyati ushbu modul asosidagi darslar ularni real gidlik faoliyatiga tayyorlashda katta yordam berganini ta’kidladilar. Ayniqsa turli millat vakillari bilan muloqot qilayotganda madaniyatlararo xatolarga yo‘l qo‘ymaslik diplomatik va muloyim yondashuvdan foydalanish ehtiyoji to‘liq anglangan.

**Tahlil va Muhokama**

Modul asosida ta’lim berish gid-hamroh va tarjimonlik yo‘nalishidagi talabalar uchun muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda nihoyatda samarali ekanligi amaliy tajribada o‘z isbotini topdi. Bu yondashuv an’anaviy usullardan farqli ravishda talabaning faol ishtirokiga tayanadi uni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Real vaziyatlarni imitatsiya qilish orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkoniga ega bo‘lishadi. Interaktiv metodlar ularning diqqatini faol ushlab turadi muloqotdagi xatolarni o‘z vaqtida tuzatish imkonini beradi bu esa ularni kelajakdagi professional faoliyatda xatoliklarni minimallashtirishga o‘rgatadi. O‘qituvchiga esa modul asosidagi yondashuv talabaning ehtiyojini aniqlash va unga mos dastur tuzish imkonini beradi. Shu bilan birga ta’limni shaxsga yo‘naltirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa motivatsiyalangan va o‘z ustida ishlovchi ijodiy yondashuvga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan o‘qituvchilar uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Har bir modulga real hayotiy holatlar kiritilishi kerak. Mashg‘ulotlar multimediaviy vositalar bilan boyitilishi zarur. Baholashda reflektiv yondashuv va o‘zaro tahlil usullaridan keng foydalanish lozim.

**XULOSA**

Gid hamroh kasbining asosiy mezonlaridan biri bu samarali muloqot olib borish, auditoriyani boshqarish, madaniyatlararo muhitda moslashish va o‘z fikrini to‘g‘ri yetkazish qobiliyatidir. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda modul asosida ta’lim berish metodikasi o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Modul yondashuvi orqali har bir talaba muloqotning turli jihatlarini – til, psixologiya, madaniyat, texnologiya – kompleks tarzda o‘zlashtiradi. Natijada, ular nafaqat nazariy bilimga, balki real turistik muhitda mustaqil

ishlashga tayyor bo'lgan malakali mutaxassisga aylanadi. Gidlik faoliyatining doimiy rivojlanib borayotganligi, turizmning global o'zgarishlari, zamonaviy sayohatchilarning ehtiyojlari shuni ko'rsatadiki, muloqot – bu oddiy ko'nikma emas, balki professionallik darajasini belgilovchi muhim kompetensiyadir. Shu bois, uni shakllantirishga yo'naltirilgan modul asosidagi ta'lim zamonaviy kasbiy ta'limning ajralmas bo'lagi bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, Sh. (2020). *Turizm va muloqot madaniyati*. Toshkent: "Fan va texnologiya".
2. G'ulomova, M. (2022). Gid-hamrohlik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muloqotning o'rni. *Kasb-hunar ta'limi jurnali*, 3(5), 45–51.
3. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
4. *Akhmedov, H. U. (2023). Assimilation is the process of changing the adopted wordInternational Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers Journal*
5. *Akhmedov, H.U., 2024. USING INNOVATIVE METHODS IN TEACHING SPEAKING SKILLS. European Science Methodical Journal, 2(6), pp.539-542.*
6. Littlewood, W. (1991). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge University Press.
7. Xalqaro Turizm Instituti (2023). O'quv dasturlari va modul tavsiflari. Toshkent.

# MUNDARIJA

## TABIIY FANLAR


| | |
|---|---|
| **TRITERPEN GLIKOZIDLAR TA'SIRINING BIOLOGIK MEXANIZMLARI HAYVONLARDA QALQONSIMON BEZ MORFOLOGIYASI BO'YICHA: TIROIDOLOGIK VA FIZIOBIOLOGIK JIHATLAR** *Don A.N.[1], Sirojiddinov K.B.* | 4 |
| **Ni (II) NING LEVOFLOKSATSIN BILAN YANGI KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA UNING ANALIZ NATIJALARI TAHLILI** *Bozorova M.I, Turayev X.X, Ashurov J.M* | 17 |
| **ANTIDETONATSION QO‘SHIMCHALARNI SINTEZ QILISH VA ULARNI FIZIK-KIMYOVIY USULLAR YORDAMIDA O‘RGANISH** *Jovliyev Sarvar Mustafo o‘g‘li, Djalilov Abdulaxat Turapovich, Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich, Fayziyev Jaxongir Baxromovich, Berdiyev Sanjar Allanazarovich* | 25 |
| **KA (MSS-558) ЦЕОЛИТИДА КАРБОНИЛ СУЛЬФИД АДСОРБЦИЯСИНИНГ ИЗОТЕРМАСИ** *Асфандиёров Маъруфжон Мансур ўғли, Бахронов Ҳаёт Нурович, Кохxаров Мирзохид Хусанбоевич, Эсонқулова Назирахон Махмудовна* | 32 |
| **KOBALT FTALOSIANIN PIGMENTINING IQ-SPEKTROSKOPIYA BO‘YICHA TAHLILI** *Durmanova Sayyora Saotovna, Nabiyev Dilmurod Abdualiyevich, Kurbonov Faxriddin Bobomuratovich, Xurramova Sarvinoz Erkin qizi, Eshqorayev Samariddin Sadiriddin o‘g‘li* | 43 |
| **SHIRALARDA INSTINKTLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI** *Mirzaliyev A.M* | 49 |
| **AYRIM ATSETILEN DIOLLARINING 2-(BROMMETIL)PIRIDIN GIDROBROMID BILAN REAKSIYASI** *L.Q. Ablakulov, A. Ikramov, O.E. Ziyadullayev, F.Z. Qushbaqov* | 54 |
| **ANJIR MEVASINING (*FICUS CARICA L*). “O`ZBEKISTON SARIQ” NAVINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO`LLANILISH AXAMIYATI** *R.N.Kazakov, I.I.Tolibjonov* | 62 |
| **ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И АНТИМИКРОБНАЯ АКТИВНОСТЬ ЭФИРНОГО МАСЛА И ГЕКСАНОВОГО ЭКСТРАКТА КОРНЕЙ *PEROVSKIA SCROPHULARIIFOLIA*** *Аткияева Санобархон Исмоилхон қизи, Бобакулов Хайрулла Мамадиевич, Охундедаев Боходир Сотволдиевич, Сасмаков Собирджан Анарматович, Ботиров Эркин Хожиакбарович* | 68 |
| **АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК БЫТОВЫХ СТОЧНЫХ ВОД** *Кучкарова Чулпаной, Ходжакулов Мухторжон* | 76 |
| **GOSSIPOL VA UNING HOSILALARIDAN RAGOSINNI TIMOTSIT HUJAYRALARI HAJMI BOSHQARILISHIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH** *Chorieva N.M., Xamidova O.J, Rustamova S.I, Kurbannazarova R.Sh, Merzlyak P.G., Gafurov M.B, Sabirov R.Z.* | 81 |
| **QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATI HUDUDIDA TARQALGAN MAYDA SUT EMIZUVCHILAR FAUNASI** *Joldasbayeva Elenura Kidirbay qizi* | 87 |
| **FIZIOLOGIK SINOVLAR ASOSIDA YURAK FAOLIYATINING FUNKSIONAL KO‘RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH** *Jamolova Latofat Asqarovna, Hurriyeva Maftuna, Murtazayeva Sevinch, Erkinova Jasmina, Xurrramova Sevinch* | 95 |

| | |
|---|---|
| *Нарзуллаева Шоира Бахшиллоевна* | |
| **ТЕКСТООБРАЗУЮЩИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СЛОВОСОЧЕТАНИЙ**<br>*Хушманова Гулшод Ибрагимовна* | **2395** |
| **O‘ZLASHMALARDA SINIQ KO‘PLIK SHAKLLARI**<br>*Rayhonoy G’oyibboyeva Ahmadjonovna* | **2399** |
| **АРАБ ТИЛИДАГИ ЎРИН ВА ПАЙТНИ ИФОДАЛОВЧИ ОТ-КЎМАКЧИЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ҲАМДА ТАСНИФИ**<br>*Султонбек Болтабоев* | **2405** |
| **ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**<br>*Ш.Б.Садикова* | **2412** |
| **GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK YO‘NALISHI TALABALARIDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MODELLARI**<br>*Akhmedov Hasan Uzairovich* | **2420** |
| **ALISHER NAVOIY VA XX ASR O‘ZBEK G‘AZALIYOTI**<br>*Haydarova Gulhayo Ahmadaliyevna* | **2424** |
| **INGLIZ TILI FONETIK TUZILISHINING TARKIBIY QISMLARI**<br>*Xasanov Elyorjon Odiljonovich* | **2428** |
| **“ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМОДАЛЬНЫХ МЕТОДИК ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ НАВЫКАМ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ У УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА”.**<br>*Ахмедов Хусен Узаирович* | **2434** |
| **XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARI VA MAKSIMLARINING MUQADDAS MATNLARDA AKS ETTIRILISHI**<br>*Otaboyeva Mazmuna Raximovna* | **2441** |
| **ALISHER NAVOIY VA XX ASR O‘ZBEK G‘AZALIYOTI**<br>*Haydarova Gulhayo Ahmadaliyevna* | **2445** |
| **OLAMNING LISONIY TASVIRI VA TILNING MADANIY-KOGNITIV FUNKSIYALARI**<br>*Matatova Nilufar Yorkinovna* | **2449** |
| **XORIJIY VA MILLIY ASARLARNING KONSEPSIYALARI ASOSIDA TIL O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**<br>*Mamashoyev Ulugbek o‘g‘li* | **2453** |
| **SAYYID SHARIF JURJONIYNING “TA’RIFOT” ASARIDA HADISLARDAN IQTIBOS KELTIRILISHI**<br>*Abdullayev D.* | **2458** |
| **FOLKLOR DISKURSIDA KONSEPTUALIZASIYA JARAYONI**<br>*Abduvahabova Mahina Azatovna* | **2463** |
| **O'ZBEK TILIDA OLMOSHLARNING TASNIFI**<br>*Abduxalikova Maftuna Mirali qizi* | **2470** |
| **INGLIZ VA O‘ZBEK FOLKLOR DISKURSINING KOGNITIV-DISKURSIV TADQIQI**<br>*Abduvahabova Mahina Azatovna* | **2474** |
| **PRAGMATIC DEVELOPMENT OF LEARNERS BASED ON 21ST-CENTURY SKILLS: IMPLICIT COMPETENCE IN UZBEK HIGH SCHOOL TEXTBOOK TASKS**<br>*Alibekova Mokhira Abduvaliyevna* | **2483** |
| **RASMIY E-MAIL XATLARNING SINTAKTIK TAHLILI**<br>*Ashurova Muxayyoxon Sanjarbek qizi* | **2487** |
| **SON GRAMMATIK KATEGORIYASINING UMUMIY MOHIYATI** | **2494** |

# Qo‘qon DPI.
# Ilmiy xabarlar

# Кокандский ГПИ.
# Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining
2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.
Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.
«Poligraf Super Servis» МЧЖ
150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

**№5/2025**